

**Jinoyat protsessida protsessual muddatlar instituti takomillashtirish****Toshkulov G‘ayrat Erkaboyevich**

Professor, katta o‘qituvchi

Sag‘dullayev Islom Sharofiddin o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti 4-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Mazkur ish jinoyat protsessida protsessual muddatlar institutining huquqiy mohiyati, ahamiyati hamda amaldagi qonunchilikda uni qo‘llash amaliyotini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Protsessual muddatlar jinoyat ishlarini yuritishda qonuniylikni, shaxsning huquq va erkinliklarini himoya qilishni, shuningdek ishlarning oqilona va o‘z vaqtida ko‘rib chiqilishini ta‘minlovchi muhim huquqiy institutlardan biri hisoblanadi. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida belgilangan protsessual muddatlarga oid normalar tizimli ravishda o‘rganilib, tergovga qadar tekshiruv, dastlabki tergov, sud muhokamasi hamda shikoyat berish bosqichlarida muddatlarga rioya etilishi masalalari tahlil qilinadi.

Ishda amaliyotda uchrayotgan muammolar, xususan protsessual muddatlarning asossiz uzaytirilishi, ayrim protsessual harakatlar uchun aniq muddatlar belgilanmaganligi, sud va tergov organlari faoliyatida vaqt omili bilan bog‘liq kamchiliklar yoritib beriladi. Shuningdek, protsessual muddatlar institutining inson huquqlari, xususan shaxs erkinligi va adolatli sudlov huquqi bilan bevosita bog‘liqligi asoslab beriladi. Tadqiqot yakunida protsessual muddatlar institutini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy xulosalar va amaliy takliflar ilgari suriladi.

АННОТАЦИЯ

Данная работа посвящена анализу правовой сущности, значения и практики применения института процессуальных сроков в уголовном процессе. Процессуальные сроки являются одним из важнейших правовых институтов, обеспечивающих законность при производстве по уголовным делам, защиту прав и свобод личности, а также разумное и своевременное рассмотрение дел. В исследовании системно изучены нормы, регулирующие процессуальные сроки, предусмотренные Уголовно-процессуальным кодексом Республики Узбекистан, а также проанализированы вопросы соблюдения сроков на стадиях доследственной проверки, предварительного следствия, судебного разбирательства и подачи жалоб.

В работе освещаются проблемы, встречающиеся в правоприменительной практике, в частности необоснованное продление процессуальных сроков, отсутствие четко установленных сроков для отдельных процессуальных действий, а также недостатки,



связанные с фактором времени в деятельности следственных и судебных органов. Обоснована непосредственная связь института процессуальных сроков с правами человека, в частности с правом на свободу личности и справедливое судебное разбирательство. По итогам исследования сформулированы научно-теоретические выводы и практические предложения, направленные на совершенствование института процессуальных сроков.

ABSTRACT

This paper is devoted to the analysis of the legal nature, significance, and practical application of the institution of procedural time limits in criminal proceedings. Procedural time limits constitute one of the key legal institutions ensuring legality in the conduct of criminal cases, protection of individual rights and freedoms, as well as reasonable and timely consideration of cases. The study systematically examines the norms regulating procedural time limits as established by the Criminal Procedure Code of the Republic of Uzbekistan and analyzes compliance with time limits at the stages of pre-investigation inquiry, preliminary investigation, court proceedings, and filing of complaints.

The paper also highlights practical problems encountered in law enforcement practice, including unjustified extension of procedural time limits, the absence of clearly defined time limits for certain procedural actions, and shortcomings related to the time factor in the activities of investigative and judicial bodies. The direct connection between the institution of procedural time limits and human rights, in particular the right to personal liberty and the right to a fair trial, is substantiated. Based on the results of the study, scientific-theoretical conclusions and practical recommendations aimed at improving the institution of procedural time limits are proposed.

Tayanch soʻzlar: jinoyat protsessi, protsessual muddatlar, oqilona muddat, dastlabki tergov, sud muhokamasi, inson huquqlari, jinoyat-protsessual qonunchilik.

Ключевые слова: уголовный процесс, процессуальные сроки, разумный срок, предварительное расследование, судебное разбирательство, права человека, уголовно-процессуальное законодательство.

Keywords: criminal procedure, procedural time limits, reasonable time, preliminary investigation, court proceedings, human rights, criminal procedural legislation.

Jinoyat protsessida protsessual muddatlar instituti protsessual harakatlar va qarorlarning belgilangan vaqt doirasida amalga oshirilishini ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu institut jinoyat ishlarini yuritishda protsessual tartibni



saqlash, protsess ishtirokchilarining huquq va majburiyatlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan vaqt chegaralarini aniqlab berishga xizmat qiladi. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksida protsessual muddatlarga oid normalar umumiy va maxsus tartibda belgilangan bo‘lib, ular jinoyat protsessining barcha bosqichlarini qamrab oladi.

Ilmiy adabiyotlarda protsessual muddatlar jinoyat protsessining mustaqil huquqiy instituti sifatida baholanadi. Jumladan, G. Tulaganova tomonidan protsessual muddatlar nafaqat vaqt ko‘rsatkichi, balki protsessual intizomni ta‘minlovchi vosita sifatida talqin qilinadi. Muallifning fikricha, protsessual muddatlar jinoyat protsessida har bir protsessual harakatning o‘z vaqtida bajarilishini kafolatlab, protsessual chiqimlar bilan uzviy bog‘liq holda namoyon bo‘ladi. Chunki ish yuritishning cho‘zilishi ko‘pincha ortiqcha chiqimlar va protsessual resurslarning samarasiz sarflanishiga olib keladi.

Jinoyat-protsessual kodeksida protsessual muddat tushunchasi, ularning hisoblanish tartibi hamda boshlanish va tugash vaqtini belgilovchi normalar mavjud. Ushbu normalarga ko‘ra, protsessual muddatlar soat, kun, oy yoki yil bilan hisoblanishi mumkin bo‘lib, ular muayyan protsessual harakat sodir etilgan paytdan yoki protsessual hujjat rasmiylashtirilgan kundan boshlanadi. Mazkur tartib protsessual harakatlarni amalga oshirishda aniqlik va barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Rajaboy B. va Mamataliyeva Sh. tomonidan ishlab chiqilgan jinoyat protsessida amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga bag‘ishlangan qo‘llanmada protsessual muddatlar amaliy faoliyat nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Mualliflar protsessual muddatlarga rioya etish tergov va sud organlari faoliyatining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta‘kidlaydilar. Ularning fikricha, protsessual muddatlarning buzilishi ko‘pincha protsessual hujjatlarning haqiqiylikiga, shuningdek dalillarni yig‘ish va baholash jarayoniga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, Jinoyat-protsessual kodeksida protsessual muddatlarni uzaytirish va o‘tkazib yuborilgan muddatlarni tiklash tartibi ham belgilangan. Ushbu normalar muayyan asoslar mavjud bo‘lgandagina qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, ular protsessual harakatlarning qonuniyligini saqlashga qaratilgan. M. Kadirova o‘z tadqiqotlarida dalillar va isbotlash jarayonida protsessual muddatlarga rioya qilinmasligi dalillarning yo‘qolishi, ularning ishonchliligiga shubha tug‘ilishi kabi salbiy oqibatlarga olib kelishini qayd etadi. Bu esa protsessual muddatlar institutining isbotlash jarayoni bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi. Jinoyat protsessining alohida bosqichlarida — tergovga qadar tekshiruv, dastlabki tergov, ehtiyot choralarini qo‘llash, sud muhokamasi hamda shikoyat va protest kiritish jarayonlarida protsessual muddatlarga oid maxsus normalar belgilangan. Ushbu normalar jinoyat ishini yuritishning izchilligi va protsessual muvozanatini ta‘minlashga xizmat qiladi.

Jinoyat protsessida protsessual muddatlar amaldagi holatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Jinoyat-protsessual kodeksida muddatlarga oid normalar mavjud bo‘lishiga qaramay, ularni



qo'llash amaliyotida qator muammolar saqlanib qolmoqda. Avvalo, tergovga qadar tekshiruv va dastlabki tergov bosqichlarida belgilangan muddatlar masalasiga e'tibor qaratish lozim. Jinoyat-protsessual kodeksining 351-moddasida dastlabki tergov uchun aniq muddatlar belgilangan bo'lib, ushbu muddatlar qonunda ko'rsatilgan asoslar mavjud bo'lgan taqdirda prokuror tomonidan uzaytirilishi mumkin. Biroq amaliyotda tergov muddatlari ko'pincha yetarli asoslar ko'rsatilmagan holda bir necha bor uzaytirilayotgani kuzatiladi. Bu holat jinoyat ishlarini yuritish jarayonining cho'zilishiga va protsess ishtirokchilarining, ayniqsa gumon qilinuvchi va ayblanuvchining huquqlariga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Protsessual muddatlar bilan bog'liq muammolar ehtiyot choralarini qo'llash jarayonida yanada yaqqol namoyon bo'ladi. Jinoyat-protsessual kodeksida ushlab turish va qamoqda saqlash muddatlari, shuningdek ularni uzaytirish tartibi qat'iy belgilangan. Ushbu normalar shaxs erkinligini cheklash bilan bevosita bog'liq bo'lgani sababli ularning aniq va asosli qo'llanilishi alohida ahamiyatga ega. Shunga qaramay, amaliyotda qamoqda saqlash muddatlarini uzaytirish masalasida sud nazoratining yetarli darajada samarali ishlamasligi, ayrim hollarda esa uzaytirish asoslarining formal tus olishi kuzatiladi. Natijada ehtiyot chorasi protsessual zaruratdan ko'ra odatiy amaliyot sifatida qo'llanib qolmoqda.

Sud bosqichida ham protsessual muddatlar bilan bog'liq muammolar mavjud. Jinoyat-protsessual kodeksida ishni sudga tayinlash, sud majlisini o'tkazish va sud qarorini chiqarish bilan bog'liq ayrim muddatlar belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda sud majlislarining turli sabablarga ko'ra kechiktirilishi ish yuritish muddatlarining sezilarli darajada cho'zilishiga olib keladi. Sud yuklamasining yuqoriligi, ishtirokchilarning kelmasligi kabi holatlar ushbu muammoning asosiy sabablaridan biri hisoblanadi.

Protsessual muddatlar shikoyat va protest kiritish bosqichida ham muhim ahamiyatga ega. Jinoyat-protsessual kodeksining 497⁴-moddasida apellyatsiya va kassatsiya tartibida shikoyat berish uchun aniq muddatlar belgilangan. Ushbu muddatlar sud qarorlarining barqarorligini ta'minlash bilan birga, shaxsning himoya huquqini amalga oshirishiga xizmat qiladi. Biroq ayrim hollarda shikoyat berish muddati o'tkazib yuborilishi yoki ushbu muddatni tiklash masalasida sudlar tomonidan turlicha yondashuvlar qo'llanilishi huquqni qo'llash amaliyotida bir xillikning yo'qligini ko'rsatadi.

Protsessual muddatlarning buzilishi yoki asossiz uzaytirilishi protsessual chiqimlarning ortishiga ham sabab bo'ladi. Ish yuritishning cho'zilishi guvohlar va ekspertlarni qayta chaqirish, qo'shimcha ekspertizalar tayinlash, protsess ishtirokchilarining sud va tergov organlariga bir necha bor kelishi bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi. Bu holat Tulaganova G. tomonidan qayd etilganidek, protsessual muddatlar va protsessual chiqimlar o'rtasida bevosita bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.

Shuningdek, protsessual muddatlarga rioya etilmasligi dalillarni to'plash va isbotlash jarayoniga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. M. Kadirova ta'kidlaganidek, tergov harakatlarining kechiktirilishi dalillarning yo'qolishi, ularning ishonchliligi pasayishi yoki protsessual



jihtadan haqiqiy emas deb topilishiga olib kelishi mumkin. Bu esa jinoyat ishining adolatli hal etilishiga to'sqinlik qiladi.

Jinoyat protsessida protsessual muddatlar institutini takomillashtirishda zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Raqamlashtirish protsessual harakatlarni amalga oshirish jarayonida vaqt sarfini kamaytirish, hujjat aylanishini tezlashtirish hamda protsessual muddatlarga rioya etilishini ta'minlash imkonini beradi. Elektron jinoyat ishi yuritish tizimini keng joriy etish orqali protsessual hujjatlarni rasmiylashtirish, yuborish va qabul qilish bilan bog'liq kechikishlarning oldi olinadi. Masalan, protsessual qarorlar, chaqiruv qog'ozlari va xabarnomalarni elektron shaklda yuborish tergov va sud bosqichlarida ortiqcha vaqt yo'qotilishini sezilarli darajada kamaytiradi. Raqamlashtirish orqali vaqtni tejash borasida Janubiy Koreya Respublikasining tajribasi ham alohida e'tiborga loyiq. Ushbu davlatda “e-Court” tizimi joriy etilgan bo'lib, u orqali sud majlislarining bir qismi masofaviy shaklda o'tkaziladi, protsessual hujjatlar elektron tarzda topshiriladi va protsessual muddatlar avtomatik tarzda hisoblab boriladi. Bu amaliyot sud muhokamalarining cho'zilib ketishini oldini olishda muhim rol o'ynamoqda.

Xalqaro tajribani tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, raqamlashtirish orqali protsessual muddatlarga rioya etilishini ta'minlash faqat texnik qulaylik emas, balki jinoyat protsessining samaradorligini oshiruvchi muhim huquqiy mexanizm hisoblanadi. Ushbu tajribalarni O'zbekiston jinoyat-protsessual qonunchiligiga moslashtirib joriy etish, xususan elektron jinoyat ishi yuritish, masofaviy protsessual harakatlar va avtomatlashtirilgan muddat nazoratini kengaytirish protsessual muddatlar institutini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Jinoyat protsessida protsessual muddatlar instituti jinoyat ishlarini yuritishda protsessual tartib va intizomni ta'minlovchi muhim huquqiy mexanizm hisoblanadi. Ushbu institut orqali protsessual harakatlarning belgilangan vaqt doirasida amalga oshirilishi, protsess ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlari himoya qilinishi hamda jinoyat protsessining izchil va samarali yuritilishi ta'minlanadi.

Tadqiqot davomida aniqlanganidek, Jinoyat-protsessual kodeksida protsessual muddatlarga oid normalar mavjud bo'lsa-da, ularni amaliyotda qo'llash jarayonida ayrim muammolar saqlanib qolmoqda. Xususan, tergov va sud bosqichlarida muddatlarning asossiz uzaytirilishi, protsessual harakatlarning kechiktirilishi va buning natijasida protsessual chiqimlarning ortishi jinoyat ishlarini yuritish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, protsessual muddatlarga rioya etilmasligi dalillarni to'plash va isbotlash jarayonining sifatiga ham ta'sir etayotgani aniqlanadi.

Maqolada protsessual muddatlar institutini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishlari sifatida raqamlashtirish orqali vaqtni tejash hamda ilg'or xalqaro tajribani qo'llash masalalariga alohida e'tibor qaratildi. Xususan, Estoniya, Germaniya, Janubiy Koreya va Buyuk Britaniya tajribasi jinoyat protsessida elektron ish yuritish, masofaviy protsessual harakatlar va avtomatlashtirilgan muddat nazorati orqali ish yuritish muddatlarini qisqartirish



mumkinligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, jinoyat protsessida protsessual muddatlar institutini takomillashtirish qonunchilik normalarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish, raqamli yechimlarni keng joriy etish va xalqaro tajribani milliy huquq tizimiga moslashtirish orqali amalga oshirilishi lozim. Ushbu yondashuv jinoyat protsessining samaradorligini oshirish, protsessual muddatlarga qat'iy rioya etilishini ta'minlash hamda protsess ishtirokchilarining huquq va qonuniy manfaatlarini yanada ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 30-apreldagi tahriri — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0266-son).
2. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi (O'zbekiston Respublikasining amaldagi tahriri — Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, lex.uz).
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining jinoyat ishlarini yuritish va protsessual masalalarga oid qarorlari (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi).
4. Tulaganova G. Jinoyat protsessida protsessual muddatlar va chiqimlar. — Toshkent, 2024.
5. Rajaboy B., Mamataliyeva Sh. Jinoyat protsessida amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha klinik seminarlar. — Toshkent, 2022.
6. Kadirova M. Jinoyat protsessida dalillar va isbotlash. — Toshkent, 2024.
7. Estoniya Respublikasida elektron jinoyat ishi yuritish va sud faoliyatini raqamlashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar.
8. Janubiy Koreya Respublikasida “e-Court” tizimi va sud ishlarini raqamlashtirish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar.